

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14016076>

## O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI VA KREDIT FAOLIYATINI BOSHQARISH

Xodjayeva Muhayyo Ulmasovna

Qarshi muhandislik iqtisodiyot inistituti assistent o'qituvchisi

[muhayyoolmasovna@gmail.com](mailto:muhayyoolmasovna@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonda tijorat banklarining kredit portfelini boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari va shu tariqa kreditlash tizimini rivojlantirish masalalari hamda respublikamiz tijorat banklarida kredit portfelini boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari yuzasidan izlanishlar olib borilishini doimo dolzarb ekanligi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tijorat banki, kredit, kredit portfelini boshqarish, risk, daromadlilik, likvidlilik bankning kredit portfeli, muammoli kreditlar, zaxiralar, muddati o'tgan qarzdorlik, bank kredit siyosati, bank riski, kredit ta'minoti, diversifikatsiya.

**Аннотация:** В статье говорится о путях повышения эффективности управления кредитным портфелем коммерческих банков Узбекистана и, таким образом, о проблеме развития системы кредитования, а также о том, что всегда актуально проведение исследований по путям повышения эффективности кредитной деятельности. управление кредитным портфелем в коммерческих банках нашей республики.

**Ключевые слова:** коммерческий банк, кредит, управление кредитным портфелем, риск, доходность, ликвидность кредитного портфеля банка, проблемные кредиты, резервы, просроченная задолженность, кредитная политика банка, банковский риск, кредитное обеспечение, диверсификация.

**Abstract.** The article talks about ways to improve the efficiency of credit portfolio management of commercial banks in Uzbekistan and, thus, the issue of developing the lending system, as well as the fact that it is always relevant to conduct research on ways to improve the efficiency of credit portfolio management in commercial banks of our republic.

**Keywords:** commercial banking, credit, credit portfolio management, risk, profitability, liquidity bank's credit portfolio, problem loans, reserves, overdue debt, bank credit policy, bank risk, credit provision, diversification.

**Kirish.** Bizga ma'lumki Mamlakatimiz bank tizimida iqtisodiy islohotlarni yanada chiqurlashtirish hamda bank tizimini liberallashtirish sharoitida kredit operatsiyalari muhim o'rin tutadi. "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish va kreditlashning faqat bozor shartlari asosida amalga oshirilishiga e'tibor berish alohida ta'kidlab o'tilgan.

Bunday operatsiyalarni bajarishda asosiy o'rinni Tijorat banklari egallaydi. Biz tijorat banklari haqida so'z olib borar ekanmiz avvalom bor quyidagi savollarga javob berishimiz kerak bo'ladi.

**1. Tijorat banki nima? Tijorat banki** – tijorat asosida bank faoliyati, ya'ni mablag'larni jalb qilish va kreditlarni taqdim etish, bank hisobvaraqlarini ochish va uni yuritish hamda to'lovlarni o'tkazish kabi amaliyotlarni amalga oshiruvchi kredit tashkilotidir. Tijorat banklari - bo'sh pulga (jamg'armaga) ega va pulga muhtoj bo'lganlar o'rtasidagi vositachilardan biri hisoblanadi.

**2. Tijorat banklari nima uchun kerak? Tijorat banklari** iqtisodiyotning asosiy "qon tomir tizimi" bo'lib, aholi va biznesning to'planib qolgan jamg'armalarini taqsimlash orqali iqtisodiyotni zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi. Bu vositachilik iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun zarur bo'lgan "yoqilg'i" ya'ni pul mablag'i bilan ta'minlaydigan omilidir. Vositachi sifatida tijorat banklari pul mablag'laridan foydalanganligi uchun foiz to'lash sharti bilan omonatlarni jalb qiladilar va ularni aholi va tadbirkorlarga kreditlar va investitsiyalar shaklida foiz evaziga taqdim etadilar. Respublikamizda tijorat bank faoliyatini yuritish uchun Markaziy bank tomonidan beriladigan bank litsenziyasini olish zarur. Ushbu litsenziya muddatsiz va uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emas.

**3. Tijorat banklari qanday xizmatlar ko'rsatadi?** **Birinchidan**, banklar sizning mablag'ingiz bilan samarali foydalanishni va xavfsizligini ta'minlagan holda, omonatga pulingizni qabul qilib, foiz to'lash orqali mablag'laringizni ko'paytirib beradi. **Ikkinchidan**, sizga mablag' kerak bo'lganda yoki zarur narsalarni sotib olish uchun jamg'armalaringiz etarli bo'lmaganda, tijorat banklari sizga kreditlar taqdim etishi mumkin. Bularga uy, texnika, avtomobil, mebel sotib olish, o'qish to'lovlari va boshqalarini misol qilib olishimiz mumkin. **Uchinchidan**, banklarning kassalari va mobil ilovalari orqali mahsulotlarning xaridi, ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar, jarimalar va boshqalar uchun to'lovlarni amalga oshirish oson bo'ladi. **To'rtinchidan**, naqd pulsiz mablag'lar bilan to'lash uchun tijorat banklarida hisobvaraqlarni ochish mumkin. Bu, onlayn do'konlarda amalga oshirilgan xaridlar uchun eng qulay to'lov yo'li hisoblanadi. Bank hisobvarag'iga mablag'ingizni qo'yib, ularni

xavfsizlikda saqlaysiz. Bundan tashqari, tijorat banklari xorijiy valyutani naqd va naqd pulsiz shakllarda sotib olish va sotish, bank konsalting va informatsion xizmatlar, hujjatlarni va boshqa qimmatbaho narsalar va hokazolarni saqlash uchun seyf va yacheykalarni ijaraga berish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatadi.

Bundan tashqari Respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bank kreditlari hajmining oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko'payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida o'ndirib olishni ta'minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy kuzatib borish asosiy ishi deb talab qilinmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va natijalar muhokamasi :** Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki Tijorat banklarida kredit faoliyatini boshqarish samaradorligini oshirish masalalari bir qator xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan va kredit portfeli tushunchasini uning mohiyatiga berilgan ta'riflarda ifodalangan. Masalan amerikalik iqtisodchilar Kris J. Carlton, Diana Mak Noton kredit portfeli - bu kreditlarni turkumlashni o'z ichiga oladi deb ta'riflashadi . SHuningdek, N. Sokolinskaya "kredit portfeli qiska va uzoq muddatli kreditlar yig'indisidan iborat" deb ta'riflaydi. Bu ta'rifda asosiy e'tibor kreditning muddatiga qaratilgan bu holat kredit portfelining mohiyatini to'liq ochib bermaydi chunki, bank tomonidan berilgan kreditlarning muddatini belgilab qo'yilishi va unga rioya qilinishi faqat kredit portfelining sifatini aniqlashda muhim omil bo'lishi mumkin. Rossiyalik mashhur iqtisodchi olim O.I.Lavrushin "kredit portfeli tushunchasi bank ishida odatda bir yoki boshqa bankning kreditlari yig'indisi tushuniladi" deb ta'rif beradi. SHu bilan birga u bankda kredit portfelini shakllantirish va uni tahlilini olib borish tijorat bankining strategiya va taktikasini aniq ishlab chiqish imkonini berib, mijozlarni kreditlash imkoniyatini oshiradi deb hisoblaydi. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham bu borada qator izlanishlarni olib borishgan, xususan, SH.Z.Abdullaevning fikriga ko'ra, banklarning kredit portfeli – bu turli xil kredit risklariga asoslangan muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kreditlar miqyosidagi bank talablarining yig'indisidir. Iqtisodchi olma o'z ta'rifida kreditlarning ma'lum bir mezonlar asosida turkumlanishiga, shu bilan birga kredit risklariga alohida to'xtalib o'tgan. YUqorida ko'rib chiqilgan ta'riflarning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilgan holda kredit portfeliga quyidagicha ta'rif berish mumkin deb hisoblaymiz: bankning kredit portfeli- bu bankning kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur asos sanalib, bank tomonidan berilgan jami kreditlarning yig'indisini o'zida ifodalaydi.

SHuningdek, banklar faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy o'rinni egallagani uchun ularning kredit portfelini to'g'ri tashkil qilish banklarning samarali va barqaror

faoliyat ko'rsatishi uchun imkoniyat yaratib beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kredit operatsiyalarini olib borishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar banklar daromadining kamayishiga, ba'zi hollarda ularning sinishiga olib kelishi mumkin. SHu sababli, banklarning kredit portfeli va uning sifatini nazorat qilib borish tijorat banklari samarali faoliyatining garovidir. YUqorida o'rganilgan holatlarga asoslanib, respublikamiz tijorat banklarida kredit portfelini boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari yuzasidan izlanishlar olib borilishini doimo dolzarb deb hisoblaymiz.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Biz ushbu mavzuni o'rganish jarayonida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda ma'lumotlarni tizimlash bo'yicha maxsus yondashuvlar, ya'ni taqqoslash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlil kabi usullar qo'llanilgan. maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish masalalari bo'yicha izlanishlari, olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

**Xulosa va takliflar:** Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston tijorat banklari o'z faoliyatlari davomida qator muammolarga duch keladilar, ularni xal qilish esa iqtisodiyotimizning kelajakdagi taraqqiyoti uchun muhim hayotiy masaladir. Bu muammoni birinchi navbatda, ko'pchilik bank mijozlarining qoniqarsiz moliyaviy ahvoli keltirib chiqaradi. Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning pirovard maqsadi shundan iboratki ushbu portfelning risk, daromadlilik va likvidlilik ko'rsatkichlarining optimal darajasiga erishish hisoblanadi, kredit portfelini samarali boshqarishda quyidagi bir qator omillarni hisobga olish zarur hisoblanadi: bank aktivlari sifati ustidan doimiy, ta'sirchan monitoring olib borish, bank aktivlari bilan bog'liq muammoli holatlarni dastlabki bosqichlarda aniqlash va bartaraf etish mexanizmini mustahkamlash, banklarda aktivlarni keng diversifikatsiya qilish, bank tizimiga oid qabul qilingan qarorlar hamda kredit munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar ijrosini tashkil qilish asosida kreditlash jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni baholash, o'rganish, ularni tahlil qilish, biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishini nazorat qilish; muammoli kreditlarni boshkarishning yangi usullarini shakllantirish, aktivlar sifatini ta'minlashni nazorat qilish, bunda kredit portfelida yaxshi kreditlar ulushi 90 foizdan kam bo'lmasligi, muddati o'tgan kreditlar miqdorini minimallashtirish, kredit portfeli tarkibining tasdiqlangan kredit siyosatiga mosligi (sohalar, hududlar va muddati bo'yicha) kabi masalalarni nazorat qilish; bank kredit siyosati va kreditlash tamoyillari shartlariga rioya etilishini nazorat qilish.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida” gi O‘zbekiston [Respublikasi qonuni](#) 2019-yil 6-noyabr.
  2. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil 11-noyabrdagi O‘QR-582-sonli qonuniga muvofiq yangi tahriri.
  3. “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risda” gi PQ-2344-sonli Qarori 2018-yil 6-may.
  4. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56b.
  5. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi [va inson manfaatlarini](#) ta’minlash – yurt taraqiyoti va xalq farovonligining garovi”. Toshkent: O‘zbekiston ,2017. – 48b.
  6. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent: O‘zbekiston,2017. – 488b.
  7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5296-sonli Farmoni.
  8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 13-sentyabrdagi 3272-sonli Qarori.
  9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagli PF-4947-sonli farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada takomillashtirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida.
  10. Abdullayeva Sh. Z. “Bank ishi”, Toshkent —Iqtisod-moliya 2017
  11. Abdullayeva Sh. Z. “Pul, kredit va banklar”, darslik, T: TMI, 2016-2017
  12. Kamolov Azim —Tijorat banklari barqarorligini boshqarish bo‘yicha xorij tajribasi, 2015
- Internet saytlari**
- [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – Davlat Statistika Qo‘mitasi rasmiy sayti
- [www.uza.uz](http://www.uza.uz) – O‘zbekiston [axborot agentligi sayti](#)
- [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti
- [www.uzpsb.uz/uz](http://www.uzpsb.uz/uz) – O‘zbekiston sanoat-qurilish banki ATB sayti
- [www.asaka.uz](http://www.asaka.uz) – Asaka [banki sayti](#)
- <http://www.worldbank.org> – Jahon banki rasmiy sayti